

## O‘QUVCHILARGA TRANSFORMATORLAR MAVZUSINI O‘QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

**Qosimova Nazokatxon Zafarjon qizi**

Farg‘ona davlat universiteti Ta’lim va tarbiya nazariyasi  
(Texnologik ta’lim) mutaxassisligi 1-kurs magistranti  
E-mail: [nazoktxon08@gmail.com](mailto:nazoktxon08@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Ushbu tadqiqotning maqsadi: umumta’lim maktablari 5 – sinf Texnologiya darsida transformatorlar mavzusini o‘qitishda interfaol metodlardan foydalangan holda o‘qitishning o‘quvchilar muvaffaqiyatiga ta’sirini aniqlashdir. Ushbu tadqiqot eksperimental guruh va nazorat guruhlarida o‘tkazildi. Tasodifiy tanlangan o‘quvchilarning 30 nafari bizning eksperimental guruhimizda, ulardan 31 nafari nazorat guruhimizda ishtirok etdi. Eksperimental guruh o‘quvchilariga interfaol o‘qitish usullaridan, ikkinchi guruhidagi o‘quvchilarga esa bevosita ma’ruza usuli va savol – javob texnikasi qo‘llanildi. Tahlillar natijalariga ko‘ra interfaol o‘qitish metodlari qo‘llanilgan eksperimental guruh o‘quvchilarining o‘quv yutuqlari sezilarli darajada oshgani kuzatildi.

**Kalit so‘zlar:** interaktiv ta’lim, konkretlashtirish, muvaffaqiyat testi, akademik muvaffaqiyat.

### ABSTRACT

The purpose of this study is to determine the effect of teaching using interactive methods on students' success in teaching the subject of "Transformers" in the 5th grade technology class of secondary schools. This study was conducted in experimental and control groups. 30 randomly selected students participated in our experimental group and 31 in our control group. For the students of the experimental group, interactive teaching methods were used, and for the students of the second group, the direct lecture method and question-and-answer technique were used. According to the results of the analysis, it was observed that the educational achievements of the students of the experimental group, where interactive teaching methods were used, increased significantly.

**Key words:** interactive learning, concretization, achievement test, academic success.

## KIRISH

Transformatorlardan maishiy texnika jihozlarini elektron boshqaruv bloklarini kuchlanish bilan ta'minlab berish nuqtai nazaridan muhimdir. Hamma darslarda bo'lgani kabi, o'quv muhitining xilma – xilligi va qiziqarli tashkil etilishi o'rganishning doimiyligini ta'minlaydi. Mavhum tushunchalarni hamda texnikaga oid murakkab tushunchalarni o'z ichiga olgan darslarda mavzu bo'yicha aniq materiallar va ko'rgazmalardan foydalanish o'quvchilar ongidagi tushunarlik darajasini oshirishga yordam beradi. Zamonaviy o'quv muhitida innovatsion texnologiyalar juda kata o'rinni egallaydi. Inson o'z – o'zini o'rganish holatini anglay oladigan mavjudot bo'lsa ham, ta'limda innovatsion texnologiyalarni qo'llash ta'lim nazariyalarini samarali va tizimli o'rganish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Transformatorlar haqida o'qitishning maqsadi nafaqat ilmiy bilim va tamoyillarni o'quvchilarga yetkazish, balki o'quvchilar ega bo'lgan bilimlarni muhokama qilish, tajriba o'tkazish orqali yangi ma'lumotlar ishlab chiqarish imkonini beradi. Texnologiya darsida 5 – sinf o'quvchilarining transformatorlar haqidagi asosiy tushunchalarni to'liq va aniq o'rganishi keyingi bosqichlarda o'rganadigan fan tushunchalarini ongida samarali tuzishda yordam beradi.<sup>1</sup> Transformatorlar haqida ma'lumot berish, ularning turlari va ishlash prinsplarini o'rgatishda ularning kundalik hayotdagi hodisalar, tushunchalar bilan aloqasini hisobga olgan holda bu tushunchalarni o'rgatish va bog'lashda hayotiy misollar keltirish o'quvchilarda mazmunli o'rganishni amalga oshirishi mumkin. Bunga o'qituvchilar tomonidan o'qitish usullari va metodlarini to'g'ri tanlash orqali erishish mumkin<sup>2</sup>. O'qitishning interfaol usullari bilan olib borilgan dars mashg'ulotlari o'quvchilarni o'rganishga yo'naltirish orqali ularning tanqidiy fikrlash darajalariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, bunday usulda tashkil etilgan darslar o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlashda, o'zlarining fikr – mulohazalarini erkin bildirish va muhokama qilish xususiyatlari orqali ajralib turadi. Interaktiv ta'lim jarayonida o'quvchilar interaktiv videolar tomosha qilishlari, interaktiv o'yinlar o'ynashlari va interaktiv mashg'ulotlar o'tkazilishi o'quvchining diqqatini tortgani uchun dars mashg'ulotlarida ularning faol ishtirokini ta'minlaydi. Bizning sezgi organlarimiz orqali oldin o'rganilgan va yangi bilimlarimiz o'rtasida aloqa o'rnatilmasak, bilimning doimiyligi yo'qoladi. Doimiy ma'lumotlar aniq, ko'rinadigan va eshitiladigan bo'lishi kerak. Interaktiv ta'limga asoslangan dars mashg'ulotlari bugungi kunda o'quvchilarning vizual, eshitish va ta'sirchan jihatlariga murojaat qiladi. Bunda hatto eng zerikarli darslar ham qiziqarli bo'ladi va saqlash darajasi oshadi.<sup>3</sup>

<sup>1</sup> Sidikova K.A. Elektrotexnologiya asoslari. Laboratoriya ishlariga uslubiy ko'rsatmalar. T.: -2020. 17 b.

<sup>2</sup> Sh.K.Shayakubov, R.X.Ayupov. "Interfaol ta'lim usullari" -T.: "Tafakkur-bo'ston", 2012. 68 b. .

<sup>3</sup> Q.Olimov, O.Abduquddusov, L.Uzoqova, M.Ahmedjonov, D.Jalolova "Kasb ta'limi uslubiyati" – T.:

Zamon va texnologiyaning rivojlanishi bilan axborotga bo'lgan ehtiyoj ortib boradi. Jamiyatda bu ma'lumotlarga ehtiyoj ta'lim va o'qitish dasturlarida o'zgarishlarga olib keladi. Shu tarzda fikrlaydigan, savol beradigan, loyihalashtiradigan va ishlab chiqaradigan malakali mutaxassis kadrlar tayyorlanadi. Tadqiqotning ahamiyati: o'quvchilar ta'lim olishda ham, kundalik hayotida ham duch keladigan muammolarni hal qilishda texnologiya fanini o'rgatish juda muhimdir. Ilmiy ta'lim bilan bola atrofdagi voqealarni tushunishi osonroq bo'ladi, ijtimoiy va tabiiy muhit bilan uyg'un bo'lishi ta'minlanadi, kuzatish va tahlil qilish natijasida yangi ma'lumotlar ishlab chiqarishni o'rganadi. Tadqiqotning maqsadi: o'quvchilarga transformatorlar mavzusini o'qitishda interfaol metodlarni dars mashg'ulotlarida qo'llash orqali o'quvchilarni yanada samarali o'rganishini ko'rsatishdir. Tushuntiriladigan mavzuni konkretlashtirish, o'quvchilarning darsda yanada faol ishtirokini ta'minlash va ularning fan ta'limidagi yutuqlarini oshirish maqsad qilib olingan

Metodika. Ushbu tadqiqotda 5 – sinf o'quvchilari tasodifiy tanlash orqali nazorat guruhi va eksperimental guruhlariga bo'lindi. Bizning tadqiqotimizdan oldin ikkala guruhga bir xil test topshiriqlari berilib, samardorlik foizini bilish uchun birinchi sinov o'tkazildi(1-jadval).

N	Guruhlar nomi	O'quvchilar soni	Test natijasi
1	Eksperimental guruh	30 ta	47.83%
2	Nazorat guruhi	31 ta	49.52%

**1 – jadval. Eksperimental va nazorat guruhlarining 1 – sinov ballarini solishtirish.**

Eksperimental guruhda kompyuter yordamida interfaol metodlardan, nazorat guruhida esa o'qitishning an'anaviy usulidan foydalanildi. Darslar haftasiga 2 soatdan, jami 14 soat o'tildi. Nazorat guruhida dars jarayonlari savol – javob usuli bilan olib borildi, eksperimental guruhda esa “Motivatsiya(qiziqtirish)”, “Aqliy hujum”, “Davra suhbat”, “Ven diagrammasi” kabi interfaol metodlar bilan olib borildi. Sinov darslari tugagach, o'quvchilarning mavzuni tushunishi va bilim darajasini baholash uchun “Muvaffaqiyat testi” o'tkazildi (2-jadval). Birinchi test imtihonlarida eksperimental va nazorat guruhlarining natijalari o'rtasidagi farq sezilarli bo'lmadi. Bu vaziyat o'quvchilarning fan bo'yicha bilim darajasi guruhlar o'rtasida bir xil ekanligi ma'lum bo'ldi.

N	Guruhlar nomi	O'quvchilar soni	Test natijasi
1	Eksperimental guruh	30 ta	95.67%
2	Nazorat guruhi	31 ta	85.65%

“Iqtisod-moliya”, 2006. 73 b.

## **2 – jadval. Eksperimental va nazorat guruhlarining tajribadan keying ballarini solishtirish.**

2-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, tajribadan keyingi ballari o‘rtasidagi farq 10% ga oshganini ko‘rishimiz mumkin. Bundan xulosa qilishimiz mumkinki, interfaol metodlardan dars mashg‘ulotlarida foydalanish, mavzuni yaxshi o‘zlashtirishga va o‘quvchilarning darsdagi akademik muvaffaqiyatiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatdi. Bundan tashqari sinfda faol bo‘lmagan va passiv o‘quvchilarning darsda ishtirok etish darajasi va bilim olish samaradorligi oshdi.

### **XULOSA**

Bu ilmiy tadqiqot tajribasidan shunday xulosa kelib chiqadiki, o‘qituvchilarning dars mashg‘ulotlarida turli xil o‘qitish strategiyalaridan foydalanishi fan kursidagi mavhum tushunchalarni bartaraf qilishda va o‘quvchilarning bilim olish samaradorligini oshirishda yordam beradi. Transformatorlar mavzusini o‘qitishda, o‘quvchilar e‘tiborini tortadigan, ularni faolligini oshiradigan interfaol metodlarni dars jarayoniga kiritish kerakligi o‘z isbotini topdi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Sh.K.Shayakubov, R.X.Ayupov . “Interfaol ta‘lim usullari” -T.: “Tafakkur-bo‘ston”, 2012-B. 135.
2. Q.Olimov, O.Abduquddusov, L.Uzoqova, M.Ahmedjonov, D.Jalolova “Kasb ta‘limi uslubiyati” – T.: “Iqtisod-moliya”, 2006 –B. 159.
3. Rajabov A, Muratov X.M, “Elektrotexnologiya” –T.: “Fan”, 2001 –B.80.
4. Selevko.G.K “Modern educational technologies” –Moscow: “Public education” 1998 –P.253
5. Sidikova K.A. Elektrotexnologiya asoslari. Laboratoriya ishlariga uslubiy ko‘rsatmalar. (o‘quv qo‘llanma) T.: -2020. B. 40.